GENDER DIPLOMATIYASI TUSHUNCHASINING TADQIQI: AN’ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK

Ergasheva Nozima
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida gender diplomatiyasi tushuncha va mazmun-mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, maqolada gender diplomatiyasiga oid qarashlarning shakllanish tarixi va bu sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlarning fikr va mulohazalari qisqacha keltirib o‘tiladi. Gender diplomatiyasing hozirgi kunda xalqaro siyosatdagi ahamiyati nimalardan iborat ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: diplomatiya, gender diplomatiyasi, gender tasavvurlar, diplomat obrazi, patriarxal diskurs, gender tafovuti.

KIRISh Insoniyat jamiyatining rivojlanishida davlatlar tashqi siyosati masalalari va muhim aloqa vositasi – diplomatiya alohida o‘rin tutgan. Davlatlar va xalqlarning o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq muammolar jahon taraqqiyoti markazida turgan bizning davrimizda xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat va diplomatiya masalalari alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi dunyoda vujudga kelgan obyektiv sharoitlar davlatlar tashqi siyosatida munozarali xalqaro masalalarni tinch yo‘l bilan hal qilish va harbiy to‘qnashuvlarni bartaraf etishga katta ahamiyat berishni talab qilmoqda. Ana shunday vositalardan biri – tashqi siyosatning asosiy quroli bo‘lgan diplomatiya va uning xalqaro masalalarni tinch yo‘l bilan hal etish usullaridir. So‘nggi yilliklarda jahon siyosatida yuz berayotgan voqea-hodisalarning davlatlar o‘rtasidagi ishonch va hankorlikka putur yetkazayotgani diplomatik faoliyatning mazmun-mohiyatini ancha kengaytirib va bu sohadagi ishlarning bir muncha murakkablashishiga sabab bo‘lmoqda. Diplomatiya sohasiga genderga oid fikr va mulohazalarning kirib kelishi natijasida bu sohada yangi bir yo‘nalish vujudga keldi. Diplomatiya va siyosiy faoliyatda ayollarning ham ishtiroki bu sohani yanada rivojlantirish usullaridan biri sifatida ko‘rila boshlandi. Tarixan rivojlangan an’anaviy diplomatiya sohasida bugungi kunga kelib samarali faoliyatining kamayishi gender jihatdan notenglik tufayli vujudga kelganligi e’tirof etilmoqda. Shuning uchun ham gender diplomatiyasi zamonaviy diplomatiya sohasida yangi bir yo‘nalish yasadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida gender diplomatiyasini chuqurroq tadqiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Olimlar tomonidan bu sohani o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, xususan, amerikalik siyosatshunos olima, Ann Maria Slotter tomonidan yozilgan “Yangi jahon tartibi” asarida global boshqaruv tizimidagi transformatsiyalar, davlatlararo hamkorlikning yangi shakllari hamda zamonaviy diplomatiyaning institutsional xususiyatlari keng yoritilgan. Ushbu konseptual yondashuv gender omilining diplomatik jarayonlardagi o‘rnini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, feministik xalqaro munosabatlar nazariyasining yetakchi namoyandalaridan biri, amerikalik olima Sintiya Enlo o‘zining “Xalqaro siyosatni feministik talqini” asarida global siyosatni gender nuqtayi nazaridan tahlil qilib, ayollarning xalqaro jarayonlardagi o‘rni tizimli ravishda yetarli darajada e’tirof etilmasligini ilmiy asoslab beradi. Shved siyosatshunoslari Karin Aggestam va Ann Tauns tomonidan hammualliflikda yozilgan

“Diplomatiyada gender burilishi: yangi tadqiqot kun tartibi” nomli ilmiy maqolada diplomatiyada gender yondashuvining shakllanishi, uning nazariy-metodologik asoslari hamda zamonaviy tadqiqot yo‘nalishlari chuqur tahlil etilgan.

Rus olimlari orasida Marina Lebedevaning “Ayollar diplomatiyada: an’anaviy va yangi rollar” nomli maqolasida muallif diplomatiyada ayollarning ishtiroki tarixan cheklangan bo‘lganini, biroq XXI asrda ularning roli sezilarli darajada kengayganini ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR Bugungi kunda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar va global boshqaruv jarayonlarining murakkablashuvi natijasida diplomatiya ham yangi mazmun kasb etmoqda. Diplomatiya faqat davlatlar o‘rtasidagi rasmiy muzokaralar bilan cheklanib qolmay, balki uning qamrovi va mazmun-mohiyati yanada kengayib, zamon talabiga mos ravishda yangi tushuncha va qarashlar bilan boyib bormoqda. Xususan, hozirgi kunga kelib “diplomatiya” so‘zi bilan birgalikda ishlatila boshlangan “gender diplomatiyasi” iborasining xalqaro siyosatga kirib kelishi bu soha qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, gender diplomatiyasini to‘liq tushunish uchun avvalo umumiy diplomatiya tushunchasini aniqlashtirish muhimdir. Uch jildli “Diplomatik lug‘at” kitobida bu atamaga quyidagicha izoh beriladi: diplomatiya davlat tashqi siyosatini amalga oshirish vositasi bo‘lib, u o‘zida ma’lum bir vazifalarni hal etish, aniq bir shart-sharoitlarni hisobga olish tabiatiga ega hamda noharbiy-amaliy chora tadbirlar va usullarini qo‘llash kabi eng keng doiradagi vakolatlarni namoyon etadi [1].

Gender diplomatiyasi – bu xalqaro munosabatlarda ayollar va erkaklarning teng ishtirokini ta’minlash, gender nuqtai nazarini siyosiy qarorlar va diplomatik amaliyotga kiritishga qaratilgan keng qamrovli sohadir. U elchilar, tashqi ishlar vazirlari va xalqaro tashkilotlar rahbarlari kabi muhim diplomatik lavozimlarda ayollarning erkaklar bilan teng ravishda ishtirokini o‘rganib, ularning hozirgi vaqtdagi xalqaro munosabatlardagi holatini tahlil qilish va baholashga intiladi [2]. Bundan tashqari gender diplomatiyasi faqatgina tashqi siyosat, diplomatik va rahbarlik sohalarida ayollar faoliyatini oshiribgina qolmasdan genderga oid bir tomonlama qarashlarni o‘zgartishni ham anglatadi. Gender diplomatiyasi tushunchasi xalqaro munosabatlar nazariyasida nisbatan yangi bo‘lib, bu konseptni birinchi bo‘lib tizimli tarzda qo‘llagan olimlar orasida eng nufuzlilari J. Ann Tikner, Sintiya Enlo va Ann Mari Slotterlar hisoblanadi. Bu sohaning shakllanishi XX asrning oxiri, xususan 1980–1990-yillarda feministik yondashuvlarning ilmiy diskursga kirib kelishi bilan bevosita bog‘liqdir. Dastlab bu yo‘nalish alohida diplomatiya sohasi sifatida emas, balki xalqaro siyosatni gender nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan nazariy yondashuv sifatida paydo bo‘lgan. 2000-yillarga kelib gender diplomatiyasi asta-sekin nazariy konseptdan amaliy siyosiy vositaga aylana boshladi [3]. Shuningdek, gender diplomatiyasining mustaqil diplomatik yo‘nalish sifatida shakllanishi ayniqsa 2010-yillardan boshlab kuchaydi. Bu davrda Skandinaviya davlatlari, xususan Shvetsiya tomonidan “feministik tashqi siyosat” konsepsiyasining ilgari surilishi gender diplomatiyasini amaliy siyosat darajasiga olib chiqdi. Shu tariqa, gender diplomatiyasi nafaqat nazariy yondashuv, balki davlat tashqi siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida xalqaro munosabatlar tizimiga kirib keldi [4].

Zamonaviy jamiyatda ayollar nafaqat oilada, balki iqtisodiyot, ilm-fan, texnologiya kabi sohalarda ham teng darajada muvaffaqiyatga erishmoqda. Bu esa gender tenglik nafaqat inson huquqining bir bo‘lagi, balki taraqqiyotning asosiy omili ekanini ko‘rsatadi. Ayrim

odamlar gender tengligini erkaklar va ayollarning bir xil bo‘lishi deb tushunishadi. Aslida bu teng imkoniyatlar va huquqlardir. Gender tengligi ayollarga ustunlik berish emas, balki mavjud kamsitishlarni bartaraf etishdir [5]. Diplomatiyada ikkala jins o‘rtasidagi nisbat muvozanatini hisobga olsak, bugungi dilemma shundaki, ayollar diplomatiyada erkaklar bilan teng ishtirok etish darajasiga erisha olmayaptilar. 2023-yilda ayollar butun dunyo bo‘ylab elchilarning atigi 21 foizini tashkil etgan [6]. Bu gender nomutanosibligi shunchaki vakillik masalasi emas, u diplomatiyaning qanday olib borilishiga ta’sir qiladi.

Ayollarning diplomatiyadagi ishtiroki tarixiy jihatdan ularning uzoq yillar davomida chetga surilganligi bilan ifodalanadi. An’anaviy diplomatiya asosan erkaklar yetakchiligidagi soha bo‘lib, qaror qabul qiluvchi lavozimlarning aksariyati erkaklar tomonidan egallangan. Ayollar esa odatda yordamchi rollarga, masalan, kotiblik yoki ma’muriy lavozimlarga tayinlangan va yuqori darajadagi diplomatik muzokaralardan chetlatilgan. Ayollarning diplomatiyadagi ishtirokiga oid eng qadimgi misollardan biri 1815-yildagi Vena kongressi bo‘lib, u yerda bir nechta ayollar rasmiy bo‘lmagan delegatlar sifatida qatnashgan. Biroq, ularning ishtiroki cheklangan bo‘lib, ular o‘z mamlakatlari rasmiy vakillari sifatida tan olinmagan [7]. Shuningdek, asrlar davomida mashhur diplomatlar – Nikola Makiavellidan Garold Nikolsongacha ayollar diplomatik faoliyatga tabiatan mos emasligini ta’kidlagan, chunki ular diplomatiya sohasida zarur bo‘lgan noyob erkaklik xususiyatlariga ega emas. Makiavelli davlat munosabatlarini olib borishda erkaklik xususiyatlarining muhimligini alohida ta’kidlagan. Uning fikricha, amalda davlatlarni erkaklar boshqaradi va himoya qiladi, shuning uchun faqat erkaklar manfaatini ilgari suradi. Nikolson esa ayollarni shijoat, hamdardlik kabi sifatlar bilan tavsiflab, bularni siyosiy faoliyatda nazorat qilinmasa xavfli deb hisoblagan. Ayollar nafaqat ichki siyosiy aloqalar uchun zaif, passiv va kelishuvchan deb qaralgan, balki ularning tashqi siyosatni tushunishdagi yetishmovchiligi ham ularni tashqi ishlar sohasidan chetda qoldirishni oqlash vositasi sifatida ishlatilgan. Bundan tashqari, uzoq vaqt davomida siyosatshunoslik, iqtisodiyot va xalqaro munosabatlar bo‘yicha rasmiy tayyorlangan ayollar yetishmagan [8]. Bu kabi bir tomlama qarashlarning mavjud ekanligi ayollar diplomatiyasining rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan. Feministik nazariyaning yirik olimlaridan biri bo‘lgan Sintiya Enlo va Iver Neumannlarning ta’kidlashicha, diplomat ramziy tasviri ko‘pincha erkak bilan bog‘langan va strategik muzokara ko‘nikmalari hamda zarurat tug‘ilganda kuch ishlatishga tayyorlik kabi xususiyatlar erkaklarga xos deb hisoblangan.

Ayollar diplomatiyada sezilarli darajada faoliyat yurita boshlashlari esa XX asrga to‘g‘ri keladi. Diplomatik xizmatda ayollarning rolini kuchaytirishga gender tengligining qonuniy ravishda mustahkamlanishi va barcha fuqarolarga teng huquqlar berilishi yordam berdi. Ikkinchi jahon urushi tugaguniga qadar ko‘plab mamlakatlarda ayollar ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan, hatto Yevropada (Fransiyada bu huquq faqat 1944 yilda berilgan) kichik diplomatik lavozimlarda ham ayollar kamdan-kam uchraydi. Xususan, fransuz ayollariga Tashqi ishlar vazirligida xizmat qilish uchun malaka imtihonlarida ishtirok etishga faqat 1928-yilda ruxsat berilgan bo‘lib, ular faqat markaziy apparat yoki yordamchi xizmatlar doirasida faoliyat yuritishlari mumkin edi. Fransiyaning ilk ayol diplomatlaridan biri S.Borel o‘z xotiralarida ta’kidlaganidek, u 1930-yilda attashe lavozimiga tayinlanganida go‘yoki “endi-endi ochilgan eshikdan zo‘rg‘a kirib borgan”. Jahon miqyosida ayollar diplomatiyasining rivojlanishiga yangi turtki 1945-yildan keyin, ko‘p tomonlama diplomatiya institutlarining shakllanishi hamda tashqi siyosiy faoliyatning umumiy demokratlashuvi sharoitida yuz berdi. Avval diplomatiya asosan urushlarning oldini olish va tinchlikni mustahkamlashga qaratilgan, yuqori darajada konservativ soha sifatida namoyon

bo‘lgan bo‘lsa, 1950-yillardan boshlab xalqaro hamkorlikning bosqichma-bosqich kengayishida muhim rol o‘ynay boshladi.[9].

Yangi davrga kelib sohaga doir qarashlar yanada o‘zgardi. Masalan, AQShning Italiyadagi birinchi ayol elchisi Klar Buz Luk (1953-yilda tayinlangan) diplomatiyani “ayollarga xos san’at” deb atagan. Shunga o‘xshash fikrlar AQShning sobiq davlat kotibasi Medlin Olbrayt va boshqa ayol diplomatlarga xos bo‘lib, hozirgi kunda diplomatiyada ayollarning sonini oshirishni targ‘ib qilayotganlar tomonidan ham qo‘llanadi [10]. Zamonaviy davrga kelib bunday qarashlar ko‘lami kengayib bormoqda. Feminizm nazariyasining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Ann Tikner, Ann Tauns va Sintiya Enlolar nafaqat diplomatiyada, balki xalqaro siyosatda ayollarning o‘rni qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatib berishga harakat qiladi.

Jumladan, Ann Taunsning diplomatiyada erkaklarning yetakchiligi mustahkam ekanligini hamda diplomatiya va diplomat obrazining gender jihatdan qanday shakllanishini tushunish murakkab masala hisoblanishini ta’kidlaydi. Zamonaviy feministik xalqaro munosabatlar tadqiqotlari genderni doimo o‘zaro munosabatlar orqali shakllanadigan jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Biroq, bu yerda ikki xil yondashuv o‘rtasida ma’lum bir qarama-qarshilik mavjud. Bir tomondan, ayrim tadqiqotlar asosiy gender tasavvurlarini ochib berishga harakat qilsa, boshqa tadqiqotlar genderning noaniq, o‘zgaruvchan va ko‘p qirrali jihatlariga e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, diplomatiya faqat erkaklashgan emas, balki ayrim holatlarda ayollashtirilgan ham bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatib beriladi. Bu yerda “tasvir” tushunchasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u diplomat obrazining turli shakllarda tasvirlanishini anglatadi. Bu tushuncha diplomatiyada obrazlar doimiy ravishda o‘zgarib turishini va turlicha talqin qilinishini tushuntirishga yordam beradi [7]. Bunday yondashuv genderni yagona va o‘zgarmas tushuncha sifatida emas, balki ko‘p qirrali va o‘zgaruvchan hodisa sifatida ko‘rishga imkon beradi. Shu bilan birga, genderda boshqa ijtimoiy omillar — masalan, ijtimoiy tabaqa, irq va millat bilan o‘zaro bog‘liq holda shakllanishi ham hisobga olinadi. Natijada, diplomatiyada gender qanday namoyon bo‘lishini chuqurroq va yangicha tushunish imkoniyati paydo bo‘ladi. Sintiya Enlo esa diplomatiyada genderning ramziy tasvirini chuqur tahlil qilgan va diplomatning odatda erkak sifatida konstruksiya qilinishini ko‘rsatgan. U ta’kidlaydiki, erkaklar hukumatga xalqaro maydonda obro‘ va mavqe oshirish uchun zarur bo‘lgan malaka, strategik tafakkur va resurslarga ega deb qabul qilinadi. Shu sababli rasmiy diplomatik o‘rin odatda erkaklarga taalluqli deb qaraladi. Shu bilan birga, Enlo diplomatlarning rasmiy faoliyati ko‘pincha ayollar tomonidan amalga oshirilgan norasmiy vazifalardan ajralmas ekanini ko‘rsatadi. Masalan, diplomatlarning xotinlari uy va ijtimoiy holat yaratish orqali turli davlatlardan kelgan erkak rasmiylar o‘rtasida ishonch, samimiy aloqalar va diplomatik muloqotning iliqligini ta’minlagan. Natijada, “erkaklar faoliyati” diplomatiya konsepti ayollar tomonidan bajarilgan uy va ijtimoiy yordam vazifalariga bog‘liq bo‘lgan. Shu tarzda rasmiy diplomatiya “erkaklar faoliyati” deb belgilansa-da, uning samaradorligi va doimiyligi ayollarning ko‘rinmas, lekin asosiy hissasiga tayangan [10]. Bu holat, rasmiy diplomatiyada erkaklikning asosiy konstruksiya sifatida shakllanishi ayollar va ularning ayollik xususiyatlarini diplomatiya maydonidan chetlatish orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi.

Hozirgi davrga kelib ham bu kabi fikrlarning mavjudligi natijasida diplomatiyada ayollarning ulushi kamligicha qolmoqda. Ko‘pgina Tashqi ishlar vazirliklari asosan erkaklar elitalari tomonidan egallangan bo‘lib, diplomatik faoliyat ko‘pincha xotinlarning ko‘maklashuvi bilan amalga oshirilgan. Bugungi kunda rasmiy diplomatik lavozimlarda ayollar soni oshgan bo‘lsa-da, elchilar orasida 85 foiz, muzokarachilar orasida esa 91 foiz

erkaklar hisoblanadi. Dunyo bo‘ylab Tashqi ishlar xizmatlarining statistik nuqtayi nazaridan, Norvegiya, Shvetsiya, Finlyandiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Fransiyadagi ayol diplomatlar Tashqi ishlar xizmatining 30% - 40% ni tashkil qiladi. Hatto rivojlangan davlatlar ham o‘z shtatlaridagi ayol diplomatlarning 50% ga yetkaza olmayotgan bo‘lsa, Janubdagi rivojlanayotgan davlatlarda ayol diplomatlarning foizi bundan ham kamroq. Pokiston va Hindiston kabi Janubiy Osiyo davlatlari diplomatiya mahoratiga ega ayollarning mos ravishda 15 va 20 foizidan kamrog‘ini tashkil qiladi [11]. Xalqaro munosabatlarni o‘rganish odatda erkak elita tarkibida bo‘lgan va bu soha patriarxal diskursni o‘z ichiga oladi, natijada ayollar yuqori siyosiy lavozimlarda ko‘rinmas bo‘lib qolgan. “Xalqaro siyosatda ayollarni tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidan chiqarib tashlash, xalqaro siyosat shunchalik erkaklashtirilgan soha bo‘lganki, ayollarning ovozlari ishonchsiz hisoblanishini gender tengligi tarafdori bo‘lgab olimlar ta’kidlaydi [12]. So‘nggi yigirma yil ichida ayollarning diplomatiyadagi ishtiroki ortgani sababli genderga oid tadqiqotlar ham asta-sekin rivojlanmoqda. Ularning ishtiroki natijasida global miqyosda gender tengligi va inson huquqlari masalalariga jiddiy e’tibor qaratilgan. Ayollar siyosiy va iqtisodiy sohalarda teng vakillik va imkoniyatlar ta’minlanishi hamda genderga asoslangan zo‘ravonlikning yo‘q qilinishini ta’minlash uchun kurash olib borgan. Ayollar diplomatlardan tortib faollarga va yetakchilargacha turli rollarda faoliyat yuritgan. Ular nizolarni hal etish va tinchlikni targ‘ib qilish jarayonlarida ham muhim rol o‘ynagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning tinchlik muzokaralarida ishtiroki barqaror tinchlik kelishuvlariga olib keladi. Muzokaralarda ayollar ko‘pincha o‘ziga xos nuqtayi nazar va ustuvorliklarni ilgari suradi, cheklangan va zaif guruhlar masalalariga e’tibor qaratadi, ijtimoiy adolatni ilgari suradi hamda jamoaviy barqarorlik va tiklanishga alohida urg‘u beradi. Ayollarning muzokaradagi yondashuvi odatda yanada hamdard, sezgir va hamkorlikka yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Shuningdek, ayollarning ishtiroki xalqaro miqyosda ijtimoiy muammolar va rivojlanish to‘siqlarini hal qilishga yordam bergan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda, xususan ta’lim, sog‘liqni saqlash, qashshoqlikni kamaytirish va gender tengligi kabi sohalarda muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, ular migratsiya, iqlim o‘zgarishi va insonparvarlik inqirozlari kabi global muammolar haqida jamoatchilik fikrlash darajasini oshirgan.

Ayollarning diplomatiya va xalqaro tashkilotlardagi ishtirokining yana bir muhim natijasi shundaki, qaror qabul qilish jarayonlariga turli nuqtayi nazarlar va xilma-xil yondashuvlar kiritilgan. Ko‘proq ayollar diplomatik korpusga qo‘shilib, yuqori lavozimlarni egallagach, ular tashqi siyosat kun tartibiga ta’sir ko‘rsatadi, ijtimoiy masalalarni ustuvor qiladilar va mavjud hokimiyat strukturalarini qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi. Bu esa siyosat variantlarining kengayishi va global muammolarni hal etishda yanada inklyuziv strategiyalar ishlab chiqilishiga olib keladi [2].

Ayollar gender tengsizliklarini kamaytirishda sezilarli yutuqlarga erishayotgan bo‘lsa-da, ular hali ham mehnat bozorida va davlat boshqaruvi tizimlarida erkaklardan ortda qolmoqda. Bunday tafovutlar butun dunyo bo‘ylab kuzatiladi. Gender tafovuti – bu insonlarning iqtisodiy sharoitlari, bandlik imkoniyatlari, ijtimoiy mavqeyi va ta’limga kirish imkoniyatlari o‘rtasidagi farqlar yig‘indisi bo‘lib, ularning barchasi jins omiliga bog‘liq holda shakllanadi. An’anaviy ravishda gender tafovuti tahlil qilinganda, patriarxal qarashlar natijasida ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq cheklov va yo‘qotishlarga duch kelishi kuzatiladi. “Global Gender Tafovutlar” hisoboti aynan ana shu tafovutlarni tahlil qilishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Bu hisobot ilk bor 2006-yilda Jahon iqtisodiyoti Forumi tomonidan joriy etilgan bo‘lib, har yili gender tengsizligini o‘lchash va ayollarning turli

sohalardagi rivojlanishini baholashni maqsad qiladi. Mazkur hisobot to‘rtta asosiy yo‘nalishni qamrab oladi. Shulardan to‘rtinchi yo‘nalish siyosiy vakillikni baholash, parlament va vazirlik lavozimlarida ayollar va erkaklar o‘rtasidagi nisbatni hamda ayollarning ijroiya hokimiyatdagi davomiyligini o‘lchaydi. Bular ichida eng past ko‘rsatkich aynan siyosiy sohada kuzatiladi – atigi 22%. Bu esa ayollarning siyosiy va diplomatik lavozimlardagi kam sonli ishtiroki hamda davlat rahbarlari darajasida ularning juda kam uchrashini anglatadi. 149 davlat ichida gender tafovutining atigi 19% qismi yopilgan bo‘lib, faqat 17 nafar ayol davlat rahbari yoki bosh vazir lavozimiga tayinlangan. Xalqaro tashkilotlar misolida ham vaziyat unchalik ijobiy emas. Masalan, BMT tarixida ilk bor ayol mediator sifatida Mari Robinson faqat 2013-yilda tayinlangan [13]. Bu tendensiya hokimiyat markazlarida va davlat rahbarlari orasida ayollar vakilligining pastligi bilan ham tasdiqlanadi. Lekin bu ko‘rsatkichlar oldingi yillarga nisbatan olganda ancha o‘sish mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, diplomatiya tarixan davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning muhim mexanizmi sifatida shakllangan bo‘lsa-da, uning rivojlanish jarayonida gender omili uzoq vaqt davomida yetarli darajada inobatga olinmagan. Hozirgi xalqaro munosabatlar tizimida esa tenglik va inklyuzivlik tamoyillarining kuchayishi natijasida diplomatiyaning mazmuni ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Shu o‘rinda, gender diplomatiyasi an’anaviy yondashuvlarni boyituvchi va ularni yangi bosqichga olib chiquvchi muhim konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Olimlar tomonidan bu sohada yangi fikr va mulohazalarning ilgari surilishi asrlar davomida genderga oid bir yoqlama qarashlarni yo‘qolishiga va ayollar faoliyatining samaradorligini ochib berishga yordam bermoqda. Boshqa sohalar singari tashqi siyosiy faoliyatda, xususan diplomatiyada ham ayollar va erkaklarning teng ravishda ishtirokiga e’tibor qaratish xalqaro siyosatning o‘sishi va rivojlanishiga, shuningdek, davlatlar va tashkilotlararo diplomatik hamkorlikning ta’minlashi uchun yanada samaraliroq va barqaror ishlashiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дипломатический словарь. (1984). Том I. Издательство Наука. Москва. – С 327.
2. Hashmi, S., Arshad, M. U., Ibrahim, I. (2023). Dissecting the gendered diplomacy paradigm: Delving into the participation and far- reaching influence of women in the realm of international relations. Contemporary Issues in Social Sciences and Management Practices, 2(3), – P.308. Retrieved from https://doi.org/10.61503/CISSMP/02-03-2023-22
3. Slaughter A.M. (2004). A New World Order. Princeton University Press.
4. Sweden’s feminist foreign policy: Handbook. (2019). Government Offices of Sweden. — P.58. Retrieved from https://www.gichd.org/fileadmin/uploads/gichd/GDEI
5. Asadullayev. U, Ibodullayeva S. X. (2025). Shaxsning huquqiy maqomi va gender tenglik. Golden brain. № 3 (18). — B. 84. http://webgoldenbrain.com/index.php/gb/article/view/58
6. Torunn L. Tryggestad, Anna Mari Obermeier, & Asha Ali. (2025, June 24). Gender and diplomacy. Peace Research Institute Oslo. https://www.prio.org/comments/1789
7. Senadeera, M. D. M. S. D. (2023). Gendered diplomacy: An analysis of women’s participation in international relations. ResearchGate. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/369799379

8. Aggestam, K., Towns, A. (2019). The gender turn in diplomacy: A new research agenda. International Feminist Journal of Politics, 21(1), – P.10. https://doi.org/10.1080/14616742.2018.1483206
9. Лебедева О. Женщины в дипломатии: традиционные и новые роли. (2025). Российский совет по международным делам. https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/zhenshchiny-v-diplomatii-traditsionnye-i-novye-roli/
10. Towns, A. E. (2020). ‘Diplomacy is a feminine art’: Feminised figurations of the diplomat. Review of International Studies, 46(3), –P.583. Retrieved from https://doi.org/10.1017/S0260210520000315
11. Fatima Umar. (4 April 2021). Gender diplomacy: A concern for international politics**.** Modern Diplomacy. Retrieved from https://moderndiplomacy.eu/2021/04/04/gender-diplomacy-a-concern-for-international-politics/
12. Enloe, C. (2014). Bananas, Beaches and Bases: Making Feminist Sense of International Politics (2nd ed.). University of California Press.
13. Kane, A. (2021). Show me the progress: Women in diplomacy and international affairs: Resolution 1325 and beyond. United Nations System Staff College. – P.51.